

O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING ROLI VA GENDER TENGLIGI

Rixsiboyev Xikmatillo Xabibulloyevich

Guliston davlat universiteti

Annotatsiya. *Maqolada xotin-qizlar bandligini ta'minlashda tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanish hamda uning muhim yo'nalishlari yoritilgan. Gender tengligni ta'minlash va xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ko'rib chiqilgan*

Kalit so'zlar: gender tenglik ,bandlik, tadbirkorlik, barqaror rivojlanish, mehnat shartnomasi, inson kapitali, "Ayollar daftari", иммуёзли кредит.

Xalqimiz azal-azaldan xotin-qizlarga alohida xurmat bilan e'tibor qaratgan. Ayollarimiz avvalo, ona sifatida qadrlangan, e'zozlangan. Sababi bugungi farovon hayotimiz ham, yorug' kelajagimiz ham bevosa ularga bog'liq.

Bugun xotin-qizlarimiz farzand tarbiyasida, turli sohalarda, mahallalarda fidoyilik ko'rsatmoqda. Ularning og'irini engil qilish, huquq va manfaatlarini ta'minlash maqsadida so'nggi yillarda bir qator qonunlar, farmon va qarorlar qabul qilindi.

O'zbekiston aholisining 17 mlndan ziyod qismini xotin-qizlar tashkil etadi, tadbirkorlikda ayollarning ulushi esa kichik biznes vakillari umumiy sonining 25 foiziga teng. Ushbu yo'nalish oldida turgan ustuvor vazifalardan biri tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida xotin-qizlar ulushini 40 foizga yetkazishdir. Buning uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda, bu borada ko'plab ishlar amalga oshirildi.

Gender tengligni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish O'zbekistonning 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarida asosiy maqsadlarning biri sifatida belgilandi. "Xotin-qizlarni tayziq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" hamda "Xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" qonunlar qabul qilindi. Bu bilan xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini yanada oshirish, ularni kamsitishning barcha shakllariga barham berish, gender tenglikni ta'minlash, ayollarga nisbatan turli tazyiq va zo'ravonliklarni oldini olish holatlari yanada mustahkamlandi. Qonunda davlat xizmatida gender siyosatini amalga oshirish uchun vaqtinchalik tarzda bir jinsdag'i xizmatchilar uchun kvotalash organi joriy etilmoqda. Ya'ni har bir davlat korxona va tashkilotlarida xotin-qizlar va erkaklar vakilligining mutanosibligi ta'minlanguncha vaqtinchalik jins kvotalari belgilanadi. Mutanosiblikka erishgach, kvotalar bekor qilish mumkin. Ayniqsa, "Gender

tenglik” to‘g‘risidagi Qonun xotin-qizlarni davlat boshqaruvning ijtimoiy-siyosiy sohalaridagi rolini oshirish uchun zamin yaratadi.

Ta’kidlash joizki, BMT ning Barqaror rivojlanish maqsadlaridan kelib chiqib qabul qilingan “O’zbekistonning 2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalari”dagi 5-maqsad - Gender tenglikni ta’minalash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish” ga qaratilgan. Ushbu hujjat jamiyatimizda gender tenglikni ta’minalash masalasida yanada keng imkoniyatlar yaratdi. 2019 yil 7 martda PQ-4235-son “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo’llab- quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror bilan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligiga to‘siq bo‘ladigan ayrim omillarga chek qo‘yildi. Jumladan, ayollar pensiya yoshiga etganda ham (55 yosh) ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasini 60 yoshga to‘lgunga qadar ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish ta’qilandi; gender tenglikning buzilishi bilan bog‘liq ishlarda advokatlar xizmatiga ehtiyoj tug‘ilsa, bu xizmatlar davlat tomonidan qoplanishi belgilandi; ayollar mehnatini muayan soha yoki kasblarda qo’llash bo‘yicha ta’qiqlar bekor qilindi; tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi xotin-qizlar uchun imtiyozli kreditlar ajratildiki, natijada tadbirkor ayollar soni bugunga kelib 14000 nafardan oshib ketdi.

Ayollarga davlat va jamiyat taqdiriga daxldor qarorlarni hayotga tatbiq etish, xususan, qonunlarni ishlab chiqish, qabul qilish, islohotlarni amalga oshirish jarayonlarida bevosita qatnashishlari uchun keng yo‘l ochildi.

Chunki ayni paytda keng jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilgan “O’zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo’llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi loyihasida bu yo‘nalishdagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha qator vazifalar o‘z aksini topgan.

Xususan, xotin-qizlar bandligini ta’minalashga ko‘maklashish, ular o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, kasb-hunarga o‘qitish va o‘zini o‘zi band qilishga ustuvor ahamiyat qaratilgani bu boradagi ishlar izchil davom ettiriladi, ming-minglab ishsiz ayollarni ish joyiga, daromad manbaiga ega bo‘ladi, degani.

Bugungi kunda har bir xonadonning fayzu farishtasi, farzandlarni barkamol insonlar etib tarbiyalashga munosib hissa qo‘sheyotgan ayollarimiz barcha islohotlarimizda faol ishtirok etmoqdalar. Xotin-qizlarga doimiy e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish O’zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining uзвиy qismidir.

Shu bois xotin-qizlarning bandligini ta’minalash, davlat va jamiyat boshqaruvidagi o‘rnii va nufuzini yanada oshirish, ularning o‘z salohiyatini namoyon etishlari uchun sharoitlarni kengaytirish, gender tenglik, oila, onalik va bolalikni himoya qilish borasidagi ishlar yangi bosqichga ko‘tarilib bormoqda.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining qabul qilinishi tom ma'noda tarixiy voqeа bo'ldi. Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi bo'lgan ushbu tarixiy dasturulamal hujjatda yaqin va o'rta istiqbolda O'zbekistonning taraqqiyot tendentsiyalari, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini kompleks rivojlantirish yo'nalihlari aniq belgilab berilgan.

Taraqqiyot strategiyasining 69-maqсади “Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash” deb nomlangan. Unda, jumladan:

- 2022–2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish;
- xotin-qizlarning ta'lif olishiga qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, ilm-fan sohasida ayollarning o'rmini yanada oshirish;
- xotin-qizlar o'rtasida biznes ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha bepul o'quv amaliy kurslarini tashkil etish, imtiyozli kreditlar va lizing ajratish, xotin-qizlarni ishga jalb qilgan holda kooperatsiya usulida tadbirkorlikni yo'lga qo'yish;
- “Ayollar daftari”ga kiritilgan va jarrohlik amaliyotini o'tkazish lozim bo'lgan xotin-qizlarning tibbiy muolaja xarajatlarini qoplab berish;
- “Ayollar daftari” orqali xotin-qizlarning muammolarini hal etish amaliyotini o'rganish va tahlil qilish hamda orttirilgan tajribadan kelib chiqib, “Ayollar daftari”ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha tartibi hamda “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi to'g'risidagi namunaviy nizom loyihamalarini ishlab chiqish kabi vazifalar ko'zda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, Taraqqiyot strategiyasi va joriy yil bo'yicha Davlat dasturidan ayollarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash, ularni bepul dorilar va vitaminlar bilan ta'minlash, jismoniy tarbiyani rivojlantirish, yosh qizlar ta'limi, ularni ish bilan ta'minlash kabi ko'plab masalalar joy olganki, bularning barchasi mamlakatimiz xotin-qizlari uchun davlat va jamiyat tomonidan ko'rsatilayotgan chinakam g'amxo'rlik namunasidir.

Binobarin, mamlakat ravnaqi, xalq farovonligi va innovatsion loyihamalar amalga oshirilishiga salmoqli hissa qo'shayotgan faol, tadbirkor xotin-qizlar va fermerlarni rag'batlantirishga, ularning faoliyati va ilg'or ish tajribasini ommalashtirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish kechiktirib bo'lmas vazifa hisoblanadi.

Shunday ekan, jamiyatimizda tinchlik, mehr-oqibat muhitini mustahkamlash, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib voyaga etkazishda o'rni beqiyos bo'lgan xotin-qizlarning ijtimoiysiyoziy hayotimizdagi nufuzini yanada oshirishimiz zarur. Ular uchun munosib shart-sharoitlar, yangi ish o'rnlari yaratish, opa-singillarimizning og'irini engil qilish,

ularning gender tenglikni ta'minlash borasida amalgा oshirilayotgan izchil islohotlar esa xotin-qizlarning bu boradagi sa'y-harakatlarini kengaytirish, jamiyatimizda amalgा oshirilayotgan demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi// Xalq so'zi, № 127 (7357) 22/06/2019.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 75- sessiyadagi nutqi.2020 yil.23 sentyabr.
3. Agzamova G. Ayolga e'tibor – kelajakka e'tibor. //”Yangi O'zbekiston”, №125(125) 2020y. 8 iyul
- 4.Norboyeva T. Xotin-qizlarning huquq va manfaatlari – davlat e'tiborida. “Xalq so'zi” gazetasi. 2020 y.13 oktyabr